**XALQ DEPUTATLARI JIZZAX VILOYATI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2024-yil 16-oktabr VI-59-216-3-0-K/24 Jizzax viloyati

**Jizzax viloyati Forish tumanidagi Egizbuloq mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan tanlangan yer maydonining soliq stavkasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasi 2-bandi, Jizzax viloyati soliq boshqarmasining 2024-yil 5-sentabrdagi 25-47680-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. Jizzax viloyati davlat Soliq boshqarmasining 2024-yil 5-sentabrdagi 25-47680-sonli hamda Forish tumani hokimligining 2024-yil 14-avgustdagi Forish tumaniEgizbuloq mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun tanlangan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydoni uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer maydoni uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi koeffitsiyentni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

2. Jizzax viloyati Forish tumanidagi Egizbuloq mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun tanlangan 65 gektar yer maydoni soliq stavkasini 1 gektar yer maydoni uchun 0.5 koeffitsiyent, 18 (o‘n sakkiz) mln. so‘m etib belgilansin.

3. Xalq deputatlari Forish tumani Kengashiga ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan xalq deputatlari Forish tumani Kengashining 2024-yil 29-dekabrdagi “Forish tumani qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar hamda mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun 2024-yilga belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-65-128-3-53-K/23-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish vazifasi topshirilsin.

4. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (A.Binoqulov), viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (U.Adilov), Jizzax viloyat teleradiokompaniyasi (E.Shermonov), “Jizzax haqiqati”-“Djizakskaya pravda” gazetasi (B.Nazarov) qarorni rasmiy nashrlarda va OAVlarda e’lon qilinishini ta’minlasin.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Mustanov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  SALIYEV ERGASH ALIBEKOVICH